

O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabaxrom qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi

Tasviriy san'at yo'nalishi 2–bosqich magistranti

abduqahhorovamuslima11@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasviriy san'at darslarini tashkil etishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. O'smirlik davriga xos bo'lgan maksimalizm, tanqidiy fikrlash, mustaqillikka intilish, emotsional barqarorlikning o'ziga xos jihatlari hamda ularning tasviriy faoliyatga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida individual yondashuv, samimiy muloqot, rag'batlantirish va zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, badiiy tafakkuri, estetik didi va tasviriy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, tasviriy san'at, tasviriy faoliyat, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, metodika, individual yondashuv, samimiy muloqot, ijodiy qobiliyat, badiiy tafakkur, estetik did, motivatsiya.

Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tasviriy san'at ta'limi alohida o'rin tutadi. Chunki tasviriy san'at darslari o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish, kuzatuvchanlikni oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishda muhim pedagogik vosita sanaladi. Ayniqsa, o'smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda dunyoqarashida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Ular mustaqil fikr yuritishga, o'z qarashlarini himoya qilishga, atrofdagi voqea-hodisalarga tanqidiy yondashishga intiladilar. Shu bilan birga, o'z qobiliyatlarini namoyon etish, ijodiy faoliyat orqali o'zini ifodalash ehtiyoji ham kuchayadi. Bunday psixologik xususiyatlar tasviriy san'at darslarini tashkil etishda o'qituvchidan o'quvchilarning yosh va individual rivojlanish xususiyatlarini chuqur hisobga olgan holda samarali metodik yondashuvlarni qo'llashni talab etadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'smirlarning psixologik rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etish nafaqat ularning tasviriy ko'nikmalarini, balki estetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, ijodiy faolligi hamda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois o'smir yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasviriy san'at darslarini tashkil etish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

O'smirlar bilan ishlashda o'qituvchi shu yosh davriga xos bo'lgan maksimalizm va tanqidchilikka duch keladi. Masalan, o'quvchi tasviriy san'at bilan shug'ullanishda "bekorchi vaqtni o'tkazish", "rassom bo'larmidik" va shunga o'xshagan jummalarni aytishi mumkin. Bunday so'zlarga o'qituvchi bamaylixotir munosabatda bo'lib, ammo shunday vaziyatlarni befarq qoldirmay o'quvchini tasviriy san'atga qiziqtirishida "Samirniy muloqot" metodaridan foydalanish lozim bo'ladi. Tasvirlash jarayonida umumiy e'tiborni badiiy did, tasviriy san'atning hayotimizdagi o'rni, rassomlar o'z asarlarida oldiga qo'yadigan va hal qiladigan vazifalarga, shuningdek san'atning jamiyatdagi rolini ochib berishga qaratilganligini tushuntirib berishi kerak bo'ladi.

O'smirlik davrida bola hissiyotli, qiziquvchan va o'z hukmida qat'iyatli bo'ladi. U hamma narsaga o'zi erishishni xohlaydi. Shularni hisobga olib, unga mustaqil ravishda qaror qabul qilish, diqqatini bir tomonga yo'naltirish, muammoning to'g'ri yechimini topish, noto'g'risini rad etishda maqtashni ham unutmaslik kerak bo'ladi.

O'smirlik davridagi o'quvchilarining tasviriy faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, tasvirlanayotgan predmetni sxematik tasvirlash bilan qoniqishmaydi, ular uning barcha xususiyatlari, tafsilotlarini muhabbat bilan yetkazishga harakat qiladilar. Bu hislatlar shuningdek o'quvchilarning aqliy rivojlanganligi va yetukligini anglatadi. O'smirlarning idroki yanada tahliliy bo'ladi. O'quvchilar tasvirlanayotgan ob'ektlarning tafsilotlariga, hajmiga, fazoviy holatiga e'tibor bera boshlashadi va bularning barchasi o'zlarining rasmlarida aks ettirishga harakat qilishadi. Shuning uchun ularning rasmlari xayoliy va ko'pincha yaxlitlikdan mahrum bo'ladi. Ushbu xususiyatni hisobga olgan holda, bizni o'rab turgan olamni yaxshiroq anglashga va o'rganishga urinish sifatida ko'rishimiz kerak bo'ladi. Agar rasm chizilgan bo'lsa, o'quvchi unga o'ta ko'p vaqt ajratgan bo'lsa, bunda o'qituvchi noo'rin bo'lsa ham o'smiring chizgan rasmlarida haddan tashqari tafsilotlarga berilganligi uchun tanqid qilmasligi kerak.

O'spirin o'quvchining ijodiy ishiga baho berayotganda, uning o'ta sezgirliigi va ijodiy muvaffaqiyatsizliklarning og'riqli o'tishini hisobga olish kerak. Shuning uchun o'quvchining sinf yoki uy ishi haqidagi har qanday tanqidiy fikri juda samimiy va muloyim bo'lishi kerak.

Biz tasviriy san'at o'qituvchilari shuni unutmasligimiz kerakki, tasviriy san'at darslarida bajarilgan har qanday sinf ishi ma'lum darajada o'quvchining shaxsini,

uning ichki dunyosini, qobiliyatini, imkoniyatlarini aks ettiradi va ochib beradi. 11 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning ko'rish qobiliyati juda rivojlangan bo'ladi. O'quvchilar ranglarning xilma-xilligini va turli xil soylarini, reflekslarini ajratib ko'rsata olishadi. Biroq, tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda, tabiatning ranglarini to'laqonli yetkaza olmaydilar. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bu asosan bo'yoqlar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liqdir. O'quvchi rangni ko'radi, lekin uni aks ettira olmaydi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi o'quvchilarga yordamga kelishi kerak, akvarel va guash texnikasini o'zlashtirish uchun bir qator mashqlarni taklif qilishi, turli xil ranglarni aralashtirish va yangi rang tuslarini olishning samarali usullarini "Master-klass" lar yoki pedagogik rasm orqali namoyish qilishi kerak. Ranglarni ochartirish va qoraytirish bo'yicha mashqlar, axromatik va xromatik ranglarni topish, ikkita berilgan rang bilan ularning o'rta rangini topish bo'yicha mashqlar juda foydali bo'lib, o'quvchilarning bo'yoqlar bilan ishlashda qo'rquv hissini yengishga va rangshunoslikning boy imkoniyatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

6-7-sinf o'quvchilari narsaning o'ziga qarab rasm ishlashidan kelib chiqqan holda, ranglarning sxematik belgilanishidan qoniqishmaydi, ranglarning aralash kombinatsiyasini sinab ko'rish orqali, ularning o'xshashlarini topishga harakat qilishadi. Buning uchun rang namunalari palitrasi bilan ishlash ko'nikmalarini birlashtirish kerak - rasm chizilgan qog'oz, unda o'quvchi ranglarni aralashtirish natijalarini tekshiradi. 6-7-sinf o'quvchilari narsaning o'ziga qarab rasm ishlashning ranglarini topishdan tashqari, ob'ektlar hajmini ham tasvirlashga moyildirlar, chunki ularga yassi tasvir yetarli emasdek tuyuladi. Yorug'lik va soyani olish uchun o'quvchi akvarel bo'yog'ini suv bilan suyultiradi yoki qora rang qo'shadi. Bu holat istalgan effektini berishi mumkin, lekin ko'pincha butun rang sxemasining sustligi yoki haddan tashqari qora ranglar koloritiga olib keladi. Yorug'lik va soya bo'yicha ranglarni tahlil qilish orqali rang berishni o'rgatish mumkin. Bunday holda, soylarning rangini ta'kidlash kifoya (masalan, olmaning soyasi yashil rangli tusga bo'yalgan bo'lishi mumkin, pomidorda u binafsha rangga bo'yalgan bo'lishi mumkin).

O'spirin yoshidagi o'quvchilarning narsaning o'ziga qarab rasm ishlarida va rangtasvir kompozitsiyalarida ba'zi individualikka xos usullarni payqashimiz mumkin. Ba'zilar yorqin ranglar sxemasini afzal ko'rishsa, boshqalari esa, aksincha, bo'g'iq, ko'rimsiz ranglar gammasida ishlashadi. Topshiriqlarda ranglarning individualligini hisobga olish zarur bo'ladi. O'qituvchi bajarilayotgan ishning rang sxemasini qayta ko'rib chiqishni taklif qilmasligi zarur. Tasviriy san'at darsida, ayniqsa o'quvchilarga ranglar bilan ishlash topshirilganda, o'quvchilarning bu yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Ba'zi o'quvchilarning rangda bajarilgan ishlari bo'yicha uning muallifini aniqlash mumkin. Bunday darslarda tasviriy san'at o'qituvchisi mashhur rassomlarning individual tasvirlash uslubi va rang sxemasi (Rembrandt, Vrubel,

Choriyev va boshqalar) haqida gapirib, o'quvchilarga san'at asarlarini, rassomlarning individual xususiyatlarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

7-sinf o'quvchilari tasvirning syujetli tomoniga ayniqsa kuchli e'tibor berishadi, badiiy asardan hayratda qolishadi. Bu yoshdagi o'quvchilarning ishlagan rasmlarida ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari rasmlariga xos bo'lgan ijodkorlik, samimiylik bo'lmasligi mumkin. Ularning ishlarida boshlang'ich sinf bolalarning quvnoq ranglari va ta'sirchan qobiliyatlari bilan solishtirganda, ularning ishlari unchalik rang-barang emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning rasmlari bilan taqqoslaganda, o'smirlarning rasmlari professional realistik tasvirlarning asoslarini o'zlashtirishga urinishlarni ko'rishimiz mumkin. Ularning ishlarida ko'pincha real tasviriy san'at tilini tushunishga bo'lgan harakatlarning yetishmovchiligi keskin

seziladi. Bundan tashqari, 6-7 sinf o'quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlari bu yoshda juda aniq namoyon bo'la boshlashadi. Bu hol 5-7 sinflardagi ko'plab bolalarda tasviriy san'at bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy qiziqishlar, didlar va sevimli mashg'ulotlari allaqachon mavjudligidan dalolat beradi. Kompozitsiya darslarida har bir bolaga topshiriqning, mavzu asosida bir necha variantlarini ishlab chiqishini tavsiya etish mumkin. Badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashqulotlarida, sinfdagi barcha o'quvchilar bajarayotgan topshiriqdan farqli, ularning qobiliyati, layoqatiga mos murakkablikda topshiriqni bajartirish. O'quvchilar uchun ishlab chiqilgan tasviriy san'at ta'lim mazmuni va metodikasi bilan bog'liq bo'lgan maxsus ko'rgazmali va didaktik materiallar bazasini yaratish.

Tasviriy san'at darslarida o'qituvchi topshiriqlarning bir necha murakkab variantlarini tavsiya etadi. O'quvchilar o'zlariga ma'qul va kuchlari yetadiganini tanlab oladilar, o'quvchilarning mustaqil ishlay olishi, fanga munosabati, aql zakovati, ishchanlik darajasi, qat'iyati, o'qishga layoqati, topshiriqni bajarishga tegishli bo'lgan shartsharoitlarining mavjudligi, intizomini e'tiborga olish muhimdir.

Tasviriy san'at darslarida 5-7 - sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyati jarayonida o'quv dasturiga muvofiq kuzatish asosida real borliqni yanada to'liqroq anglab yetish vazifasi yuklatilgan. To'liqroq anglab yetish deganda ob'ektlarning nisbati, hajmi, tuzilishi, rangi, yorug'ligi, fazoviy joylashuvi tushuniladi. Maktab davridagi o'qish davomida ranglarni to'g'ri topish, tasviriy san'atning mohiyati, rang va bo'yoq o'rtasidagi farq ham aniqlanishi kerak. Maktab yoshidagi o'quvchilarga san'at asarlarini idrok etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Darhaqiqat, inson tasviriy san'at bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, u san'atga qiziqishi, ko'rgazmalar, muzeylarga tashrif buyurishi, ma'naviy dunyosini boyitishi maqsadga muvofiqdir.

Xullas, maktab tasviriy san'at fanining bugungi dasturidagi o'quv materiallarini sinfdagi o'qiyotgan barcha o'quvchilari bajarishlari lozim. Buning uchun shu o'quv materiallarini o'quvchilarning layoqati va qobiliyatidan kelib chiqib, o'qituvchining o'zi tashabbusi asosida va o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlaridan

kelib chiqib taqsimlash kerak. Buning uchun o'qituvchiga o'quv jarayonini tashkil etganda individual yondashish texnologiyasini qo'llash zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov R.R. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 224 b.
2. Tasviriy san'at. Umumiy O'rta ta'lim maktablaring 5-sinfi uchun darslik / Kuziev T., Abdiraslov A., Nurtoev O., Sulaymonov A. — T.: O'zbekiston.2015. -128 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi -T.: Lex.uz. 2019.
4. Hasanov R. Tabaqalishtirilgan ta'lim. Muammo va yechim. // Ma'rifat gazetasi. 2003. 15 noyabr.-8-9 b.
5. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. 2009.204b.
6. Hasanov R. O'quvchilarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarini o'zlashtirilishining nazorati. —T.: TDPU. 2008. -30 b.